

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika -matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

Shaxrulloeva Shoxida Abdulloyevna

**“Universitet informatsion tizimida kafedra yig'ilishlari monitoringini
modulini yaratish”**

5130200-“Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi”**

Kafedra mudiri
_____ dots.T.B.Boltayev
«_____» _____ 2016 y.

Ilmiy rahbar _____ X.U.Xayatov
“_____” _____ 2016 y.
Taqrizchi _____ Nurullayev M.M
“_____” _____ 2016 y.

“Himoya qilishga ruxsat berildi”
Fakultet dekani _____ Sh.M.Mirzayev
“_____” _____ 2016 y.

Buxoro-2016

MUNDARIJA

Kirish.....	2
I. Web sahifalarni yaratish uchun dasturlar	
1.1 HTML tili.....	7
1.2 ASP NET MVC texnologiyasi.....	17
1.3 SQL tili.	32
II. Universitet information tizimida kafedra yig'ilishlari monitoring modulini yaratish	
2.1 Kafedra yig'ilishlari monitoringgi spetsifikatsiyasi.....	47
2.2 Dastur loyihasi.....	48
2.2.1 Ma`lumotlar ER modeli.....	48
2.2.2 Foydalanuvchi grafik interfeysi.....	55
2.3 Asosiy modular va amalga oshirish.....	58
Xotima.....	74
Foydalanilgan adabiyotlar.....	75

KIRISH

Biz o'z istedodli, fidoiy bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak.

I.A.Karimov

Ma'lumki ta'lim orqali xalqning o'ziga xosligi, madaniyati, tarixi anglanadi, mamlakatlarning bir-biriga yaqinlashishi ta'minlanadi. Biz anchadan buyon O'zbekistonda ta'limdagi, jumladan oliy ta'limdagi islohotlarning borishini qiziqish bilan tahlil qilib, boramiz. Oliy ma'lumotli kadrlarni 2 bosqichda tayyorlashga o'tish-bu, xalqaro maydonga chiqish, yuqori zamonaviy talablarga moslashish demakdir.

Biz yashayotgan XXI asr–intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va xalq uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar. Shuningdek bu asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muamolarni ham keltirib chiqarmoqda. Davr bizning oldimizga qo'yayotgan bunday muammolarni yechish, talablarni bilish, ularni chuqur anglash uchun albata zamonaviy bilim zarur.

Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi, va har qaysi inson Olloh taola ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va

xalqining, davlatining faravonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning surat va samarasini hatto tasavvur qilish oson emas. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo'lishi muqarrar.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, imkoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda. Albatta bu fikrlarni barchasiga ham ma'lum ma'noda haqiqat bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy.

Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taasurolt uyg'otmoqda. Bunday ta'rif meningcha, ko'p tomondan masalaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydi. Nega deganda hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin odamzot bu haqida dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'yektiv tan olish kerak bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunib anglash qiyin emas.

Shu ma'noda globallashuv bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning

g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, hisoblash mumkin. Ayniqsa davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz.

Oliy majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatimiz iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bank moliya tizimini rivojlantirishni normativ huquqiy jihatdan ta'minlash masalalari alohida o'rin egallaydi.

Bu davrda xususiy mulkni huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish, mamlakatimizda har tamonlama baquvvat mulk egalari sinfini shakllantirishni ta'minlash harakatini mustahkamlash, iqtisodiyotni yanada liberallashtirishni ta'minlash, tadbirkorlik, avvalo kichik biznes faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish keng tarmoqli bozor infratuzilmasini barpo etishni ko'zda tutadigan qonun hujjatlarining butun bir majmuasi qabul qilindi.

Aholi daromadlari va xalq farovonligini uzluksiz oshirib borish, keng miqyosdagi ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish masalalari parlamentning e'tibor markazida bo'ldi.

Iqtisodiy islohatlarni qonuniy jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan bunday va boshqa bir qator tadbirlar 2009-2012-yillarga mo'ljallangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga

qaratilgan inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishni huquqiy ta'minlash dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish va aholining real daromadlarini oshirish imkonini berdi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yashar ekanmiz yoshlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda faol ishtirokchi bo'lib voyaga yetishlari, o'zining aql zakovati, ilmiy salohiyati, ma'naviyati, madaniyati bilan milliy istiqlol g'oyalarini mustahkamlashda, ozod va obod vatanni qo'riqlashda yonib yashaydigan shaxs qilib voyaga yetkazishimiz kerak.

Bugungi kunda talim-tarbiya sohasidagi islohotlarning yo'nalishlari va prinsiplari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Davlat ta'lim standart talablarida ko'rsatib berilgan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning talablaridan biri yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy va kasbiy fazilatlarni shakllantirish, izlanish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa har bir o'qituvchidan yuqori bilim va yuksak madaniyat egasi, tashkilotchi hamda tadbirkor bo'lishi talab qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi: Ta'lim sohasida axborot texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish. Ish hujjatlarni tayyorlashda talab darajasida rasmiylashtirish va ishonchli saqlashini ta'minlash.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: ASP NET MVC texnologiyasidan foydalanib kafedra yig'ilishlari monitoringini olib borish qulaylik yaratuvchi web ilova yaratish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: ASP NET MVC texnologiyasining imkoniyatlari, afzalliklari hamda web ilovani tayyorlashda foydalaniladigan usullarini ko'rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi: Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida kerakli manbalar bir tizimga keltirildi. ASP NET

MVC da Entity Fraemworkning DataBaseFirst usulidan foydalanib ma'lumotlar ombori ustida amallar bajarish haqida ma'lumotga ega bo'ldim. Web ilova yaratish jarayonida MVC, Database first, SQL server kabi texnologiya hamda MBBT lari bilan ishlashni o'rgandim. Web ilova kafedra bayonnomalari strukturasiga muvofiq o'rganilib tayyorlandi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: HTML, ASP NET MVC texnologiyasi, SQL tili va kafedra yig'ilishlari.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Kafedra tuzilmasining yig'ilishlarini avtomatlashtirish dasturi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi: Kafedra yig'ilishlari monitoringi modulini yaratishda ASP NET MVC texnologiyasi va SQL tillarini qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi: Ma'lumotlar omborini shakllantirishda Entity Fraemwork hamda ma'lumotlar ustida amallar bajarishda MVC texnologiyasidan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: Kafedra yig'ilishlarini tashkil qiluvchi xodimning ishi osonlashtiriladi, xodimlarga kafedrada bo'ladigan yig'ilishlar qachon, qaysi masalalar ko'rilishi, yig'ilishni qaysi o'qituvchi olib borishi, ko'rilgan masalalar yuzasidan chiqarilgan qarorlar haqida ma'lumotlar berib boriladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari: WEB arxitektura va SQL tili.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: WEB serverni dasturlashda ASP NET MVC texnologiyasidan va ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlarini qayta ishlashda SQL tilidan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi 75 betdan iborat bo'lib, kirish, 2 ta bob, xotima, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. Web sahifalarni yaratish uchun dasturlar

1.1 HTML tili

HTML tili buyruqlari teg (tag) deb ataluvchi maxsus elementlar yordamida beriladi, ya'ni uning asosini teglar tashkil etadi. Teglar < > qavs orasida berilib, ular brouzerda ko'rinmaydi, balki qulay ko'rinishga keltirish uchun xizmat qiladi. Odatda, ko'pchilik teglar ikki marta takrorlanib, jufti

bilan beriladi, ya'ni «ochilib-yopiladi». Masalan, < BODY>, < / BODY>.

HTML tili tanasida ajratib ko'rsatish uchun teglar katta harflar bilan yoziladi va < HTML > bilan boshlanib, </ HTML > bilan tugaydi. Bunda katta va kichik harflar farqlanmaydi.

Shuningdek, HTML tili andozasi bo'yicha hujjatga <HEAD> va <BODY> teglarini kiritish tavsiya etiladi. Brauzer HTML hujjatni o'qiganida, ularning borligi hujjat bo'limlarini aniq ko'rsatadi. Biroq ular bo'lmasa ham, brauzer HTML — hujjatni to'g'ri o'qiydi, lekin hujjat bo'limlari bir-biridan ajralib turmaydi.

Shunday qilib, to'g'ri tuzilgan HTML — hujjat quyidagi tuzilishga ega:

< HTML >

< HEAD>

Sarlavhaga oid ma'lumot

< / HEAD>

< BODY>

Hujjatning mazmuni

< / BODY>

</ HTML >

Bunda < HEAD>, < / HEAD> orasida joylashgan sarlavhaga oid ma'lumot qismida, odatda, foydalanuvchiga e'tiborli bo'lmagan, lekin brouzer uchun lozim ma'lumot beriladi.

< BODY>, < / BODY> orasiga esa uning operatorlari to'laligicha ketma-ketlikda joylashtiriladi.

Masalan :

< HTML >

< HEAD>

< TITLE> My 1 web </TITLE> (Bu darchaning sarlavhasi uchun)

< /HEAD>

< BODY>

<p>Mening birinchi veb-sahifam</p> (Bu tahrir darchasi uchun)

< /BODY>

</HTML >

HTML tili asosiy operatorlari va ularning tasnifi: HTML tili operatorlardan tashkil topadi. Ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz.

1. — izoh. Shu belgi orasiga joylashtirilgan ixtiyoriy matn izoh deb qaraladi.

2. **A**

<A>... — hujjatga gipermurojaat o'rnatish. Atributlari (qo'shimcha yordamchi operatorlari, bular <A>... orasida ishlatiladi): HREF, NAME, TARGET, _blank, _top, _parent, _self, TITLE, TYPE, CHARSET, HREFLANG.

HREF atributi — gipermurojaatga olib boruvchi URL ta'riflovchisi vazifasini bajaradi. Masalan: O'zMU . Agar yo'nalish ichma-ich joylashgan papkalarda joylashgan bo'lsa, «/» belgisi yordamida ko'rsatiladi. Agar murojaatni shu sahifadagi biror belgiga o'rnatish lozim bo'lsa, «#» belgisidan keyin ko'rsatiladi.

NAME — agar gipermurojaat shu sahifaning o'ziga o'rnatilgan bo'lsa, o'tishni ushbu atribut yordamida ko'rsatish mumkin.

TARGET — gipermurojaat qayerda ochilishi kerakligini ko'rsatadi.

blank — gipermurojaat natijasini yangi darchaga ochib beradi.

top — natijani brouzerdagi barcha darchalarga ochish (maxsus FRAME lar uchun).

parent — natijani brouzerdagi bosh sahifa darchasiga ochish (maxsus FRAME lar uchun).

self — natijani joriy darchada ochish (maxsus FRAME lar uchun).

TITLE — bu hujjat darchasining sarlavhasini ifodalash uchun.

TYPE — gipermurojaat o'rnatilgan hujjatning MIME — turini aniqlaydi.

CHARSET — gipermurojaat o'rnatilgan hujjatning yozuv kodini aniqlaydi.

HREFLANG — gipermurojaat o'rnatilgan hujjatning yozuv tilini aniqlaydi.

Masalan: <a href=first.html#mavzu № 1 type = «text/html» charset = «iso-8859-6» hreflang = «ru» target=»_blank»

3. B

... — matnni to'q-qalin shrift bilan tasvirlaydi.

Masalan: bir, ikki, uch .

4. BASEFONT

<BASEFONT>...</BASEFONT> — hujjatda avvaldan qabul qilingan shriftning o'lchami, turi va rangini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Odatda, matnda shrift o'lchamini bir xilda, ta'kidlashsiz ko'rsatish uchun ishlatiladi. Shrift o'lchami 1 dan (eng kichik) 7 gacha (eng katta). Ta'kidlanmasa, avtomatik ravishda 3 o'lchovida yoziladi.

Masalan: <BASEFONT SIZE = «4»>

5. BGSOUND

Sahifa foniga ovozni ulash. *.mid, *.wav, *.au turdagi ovozli fayllarni qabul qiladi.

— **SCR** — orqali ovozli fayl joylashgan joy ko'rsatiladi.

— **LOOP** — fonli ovozning takrorlanish sonini ko'rsatish, «-1» qiymati yoki «INFINITE» ni tanlash orqali cheksiz qilib qo'yish mumkin.

6. BODY

<BODY>...</BODY> — veb-sahifani to'ldiruvchi matn, deskriptorlar va boshqa ma'lumotlarni aniqlaydi, ya'ni asosiy ma'lumotlar ushbu teglar orasiga kiritiladi. Atributlari:

BACKGROUND — fon tasviri yoki rasmning manzilini ko'rsatish.

Masalan: <body background = «rasml.gif» ... >

BGCOLOR — fon rangini ko'rsatish, bunda rang o'mida tasvir yoki rasmlardan ham foydalanish mumkin.

Masalan: <body background= «rasml.gif» bgcolor=»red» ...> .

TEXT — matnning asosiy rangi.

Masalan: <body background=»rasml.gif» bgcolor= «gray» text= «black» ... >

LINK — gipermurojaatli matn rangi.

Masalan: <body background = «rasml.gif» bgcolor = «red» text = «black» link = «blue»... >

VLINK — gipermurojaatli matn tanlangandan keyingi rangi;

Masalan: <body background= «rasml.gif» bgcolor= «red» text=«black» link= «blue» vlink= «olive»... >

ALINK — joriy gipermurojaat rangi, kursor yordamida tanlangan paytda shu rang ko'rinadi.

Masalan: <body background= «rasml.gif» bgcolor= «red» text= «black» link= «blue» vlink= «olive» alink= «orange»... >

7. BR

Satrnı avtomatik bo'lib, keyingi satrga o'tkazish.

8. DD

Matn chap chegara bo'yicha tekislanadi. Ta'riflar ro'yxati (DL) ichida ishlatiladi.

Masalan: <dl>

<dt> Birinchi pog'ona

<dd> Ikkinchi pog'ona</dd>

</dl>

9. DL

<DL>...</DL> — ta'riflar ro'yxatini ko'rsatadi. Ichida <DT> teg orqali aniqlanayotgan termin, <DD> teg bilan esa termin ta'rifı beriladi.

Masalan: <dl>

<dt>termin

<dd> termin ta'rifı <dd>

</dl>

10. EMBED

Sahifadagi bajariluvchi obyektlar uchun zarur bo'lgan vositalar joylashgan joyni ko'rsatish yoki avtomatik bajariladigan qilish. Masalan:

Flash, VRML, QuickTime, Adobe Acrobat va boshqa vositalar orqali.

SCR — orqali obyekt (fayl) ning joylashgan joyi yo'lini ko'rsatish.

11. FONT

... — shrift parametrlarini ko'rsatadi.

Atributlari:

SIZE — matn o'lchamini ko'rsatish.

COLOR — matn rangini ko'rsatish.

FACE — shrift nomini ko'rsatish, shuningdek bir nechta shriftni ham o'rnatish mumkin.

Masalan: qizil rang, o'lchami uch

12. H1

Matn qismi yoki holati.

<H1>...</H1> — birinchi pog'ona sarlavhalari (eng kattasi).

Atributlari:

ALIGN — Tekislashni aniqlash.

Masalan: <h1 align= «center» ... > ... </h1>

FONT — berilgan matn qismi shriftini ko'rsatish.

Masalan: <h1 align = «center» font = «Verdana» ... > ... </h1>

SIZE — shrift o'lchamini ko'rsatish.

Masalan: <h1 align = «center» font = «Verdana» size = «3» >
... </h1>

13. H2

<H2>...</H2> — ikkinchi pog'ona sarlavha. Umuman olti xil sarlavha mavjud. Ularning qolgan to'rttasi <H3>,<H4>,<H5>,<H6> (eng kichigi) bilan belgilanadi.

14. HR

<HR> — gorizontal chiziq (chizg'ich) qo'yadi.

15. I

<I>...</I> — matnni yozma shrift bilan tasvirlaydi.

<i> Bir, ikki, uch </i>.

16. IMG

 — sahifada rasm joylashtirishda ishlatiladi.

Masalan: , bu yerda photol — sizning veb-sahifangizdagi fayl bilan bitta katalogda turgan rasm nomi.

Atributlari:

SCR — rasm joylashgan joyni ko'rsatish.

ALT — rasm ochilguncha yoki ochilmay qolganda tegishli matnli satr kiritish.

ALIGN — tasvirda matnning holatini ko'rsatish:

top — yuqori chegara bo'yicha; bottom — pastki chegara bo'yicha; left — chap chegara bo'yicha; right — o'ng chegara bo'yicha; center — markaz bo'yicha.

WIDTH — rasm kengligi;

HEIGHT — rasm balandligi;

HSPACE — gorizontal bo'yicha tasvirgacha bo'lgan bo'sh maydonni aniqlash;

VSPACE — vertikal bo'yicha tasvirgacha bo'lgan bo'sh maydonni aniqlash.

BORDER — tasvir atrofidagi chiziq o'lchamini ko'rsatish.

NAME — tasvir nomini aniqlaydi.

Masalan:

17. LI

...() — ro'yxatdagi har bir element boshlanishini aniqlaydi (odatda, ... yoki ... ro'yxat teglari orasida ishlatiladi).

VALUE — ro'yxat yozilish tartibini (nomer boshini) aniqlaydi.

TYPE — ro'yxatdagi nomerlash turini ko'rsatadi.

Masalan: <li value = «5»> ...

18. OL

... — to'liq tartiblangan ro'yxatni aniqlaydi.

Atributlari:

TYPE — tartiblangan ro'yxat turini ko'rsatish;

1 — arab raqamlari yordamida tartiblash;

A — katta harflarda tartiblash;

a — kichik harflarda tartiblash;

I — rim raqamlarida tartiblash;

i — kichik rim raqamlarida tartiblash;

START=n — nechadan boshlanishi;

COMPACT — ro'yxatni ixcham ko'rinishda tasvirlash uchun ishlatiladi.

Masalan:

```
<OL TYPE=I START=15>
```

```
<LI> Dasturlash
```

```
<LI> Algoritmlash
```

```
<LI> Loyihalash
```

```
</OL>
```

Natijasi:

XV. Dasturlash

XVI. Algoritmlash

XVII. Loyihalash

19. P

<P>...</P> — abzas (xat boshi)ni aniqlaydi.

Atributlari:

ALIGN — tekislashni aniqlash;

left — chap chegara bo'yicha;

right — o'ng chegara bo'yicha;

center — markaz bo'yicha;

justify — kengligi bo'yicha (eniga);

```
<p align = «Justify»> ... </p>
```

20. PRE

<PRE>...</PRE> — oldindan formatlangan matnni aniqlaydi, matn holatini saqlaydi.

Masalan: `<pre> Probellarni tekshirish </pre>`.

21. SCRIPT

Java Script kodini aniqlaydi.

22. SUB

Matnni quyi indeks kabi ifodalash

Masalan: _{bir, ikki, uch}

23. SUP

Matnni yuqori indeks kabi ifodalash

Masalan: ^{bir, ikki, uch}

24. TABLE

Jadval yaratishda ishlatiladi.

<TABLE> ... </TABLE>

<TABLE ... > ichida atributlari yoziladi.

Atributlari:

BORDER — jadval chegarasi chiziq kengligini ko'rsatish.

Masalan: Ctable border = «2» ... > ... </table>

ALIGN — gorizontal bo'yicha tekislash.

left — chap chegara bo'yicha tekislash;

right — o'ng chegara bo'yicha tekislash;

center -- markaz bo'yicha tekislash.

Masalan: <table border = «2» align = «center»... > ... </table>

WIDTH, HEIGHT — kengligi va balandligi. Odatda, piksel yoki foizlarda beriladi.

Masalan: <table border = «2» align = «center» width = «300» height = «100%»... > ... </table>

CELLSPACING — Qo'shni yacheykalar orasining kengligini ko'rsatish, piksel yoki foizlarda beriladi.

Masalan: Ctable border = «2» align = «center» cellpadding = «5»... > ... </table>

CELLPADDING — yacheykalardagi ma'lumot va chiziq chegarasi orasining kengligini ko'rsatish, piksel yoki foizlarda beriladi.

Masalan: `<table border = «2» align = «center» cellpadding = «5» cellpadding =«10%» ... > ... </table>;`

FRAME — jadvalda qaysi chegaralami ko'rsatish va qaysilarini ko'rinmaydigan qilish;

BGCOLOR — jadval foni rangini ko'rsatish.

Masalan: `<table bgcolor = «green» border = «2» align = «center» ... > ... </table>`

BORDERCOLOR — jadval chegarasi rangi;

BACKGROUND — jadval foni sifatida tasvirdan foydalanish.

25. TD

`<TD>...</TD>` — jadval satrida alohida yacheykani ramkaga oladi.

26. TH

`<TH>...</TH>` — jadval sarlavha yacheykasi uchun ishlatiladi.

27. TITLE

`<TITLE>...</TITLE>` — sarlavhani tashkil etadi. Ushbu teglar orasida brouzerda hujjat nomini ko'rsatish mumkin.

28. TR

`<TR>...</TR>` — jadvalda satming boshi va oxiri.

Jadval satrini aniqlaydi. Odatda, jadvalda `<TH>` yoki `<TD>` teglari bilan ishlatiladi.

29. U

`<U>...</U>` — matnni ostki qismi chizilgan holda tasvirlaydi.

Masalan: `<u> Bir, ikki, uch </u>`.

30. UL

`<UL>...</UL>`

Markerli ro'yxat yaratish. `<LI>` yordamida beriladi.

Atributlari:

TYPE — marker turini ko'rsatish;

disc — bo'yalgan doira;

circle — bo'yalmagan doira;

square — kvadrat;

COMPACT — matn ko'rinishini ixchamlashtirish.

Masalan: `<ul type=square> <li> Bir <li> Ikki<li> Uch <li>`

`To'rt <li> Besh </ul>`

Natijasi:

- Bir
- Ikki
- Uch
- To'rt
- Besh

1.2. ASP NET MVC texnologiyasi.

ASP NET MVC (model – view - controller) patteri (shabloni)dan foydalanib, web- ilovalarni yaratish uchun platformani taqdim etadi.

Yangi platforma ustida 2007 yildan ish boshlangandi, 2009 - yilda birinchi versiyasi mavjud bo'ldi. 2012 yilgacha 4 - versiya ishlab chiqarildi, freymvorkni o'zi esa butun dunyo bo'ylab taniqli bo'lib qoldi.

Yangi platforma asosidagi MVC shablon, uchta komponentning o'zaro aloqasini ko'zda tutadi: kontroller (controller), model (model) va ko'rinish (tavsifi) (view).

Kontroller (controller) – bu komponent ilovaning boshlang'ich sinfini bildiradi, bundan ilovaning ishi boshlanadi. Bu sinf model va ko'rinish o'rtasidagi aloqasini ta'minlaydi. Foydalanuvchi tomonidan kirgizilgan ma'lumotlarni olib, kontroller ichki logikasiga qarab, kerak bo'lsa modelga murojaat qiladi va shunga tegishli ko'rinishni yaratadi.

**Ko`rinish** (view) - bu ilovaning vizual qismi yoki foydalanuvchi interfeysi. Masalan, html – sahifa, qaysisi orqali foydalanuvchi saytga kirib ilova bilan aloqada bo`ladi.

Model (model) – bu sinflar to`plami, qaysilari foydalangan ma`lumotlarning logikasini tavsif etadi.

Kontrollerlar uchun bizlarda **Controllers** papkasi bor. Bu papkaning ustiga sichqonchaning o`ng tugmasini bossak paydo bo`lgan menyuda **Add- >Controller...ni** ajratib olamiz. Yangi kontroller yaratish oynasi paydo bo`ladi. Kontroller nomini **Home Controller** deb qo`yamiz va Addni bosamiz:

Quyidagi kontroller paydo bo`ladi:

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Web;
using System.Web.Mvc;
namespace BookStore.Controllers
{
    public class HomeController : Controller
    {
        // GET: /Home/
        public ActionResult Index()
        {
            return View();
        }
    }
}
```

Kontroller - dasturiy ilovaning asosiy tarkibiy qismi. Bu modelni va foydalanuvchi interfeysini bog`laydi. Kontroller – bu oddiy sinf, bu Controller bazali sinfidan meros qilib olinadi. Hozircha u bitta Index metodiga ega. Bu metod View () – kelajak ifodani qaytaradi. Agar ilovani hozir yuklasak, xato bo`ladi,

chunki bu metod uchun ifodalash aniqlanmagan. Ifodani qo`shishdan oldin va foydalanuvchi interfeysini yaratishdan oldin Index metodini bunday o`zgartiramiz:

```
using System;
    using System.Collections.Generic;
    using System.Linq;
    using System.Web;
    using System.Web.Mvc;
    using BookStore.Models;
    namespace BookStore.Controllers
    {
        public class HomeController : Controller
        { // ma`lumotlar kontekstini yaratamiz
            BookContext db = new BookContext();
            public ActionResult Index()
            {
                //ma`lumot/bazasidan hamma Book ob`yektlarini olamiz
                IEnumerable<Book> books = db.Books;
                // hamma olingan ob`yektlarni Books dinamik xossasiga uzatamiz
                ViewBagga
                    ViewBag.Books = books;
                    // ifodalashni qaytaramiz
                    return View();
            }
        }
    }
```

Diqqatni qaratamiz, moddellar boshqa nomlar doirasida joylashgan, bitta loyihada bo`lsalar ham. Shuning uchun uni ko`chirish (import qilish) kerak. Keyin

ma'lumotlar kontekstini yaratamiz. **Books** xossasini ishlatib, **MBdan** Book ob'yektlari ro'yxatini olamiz.

Keyin **Books** ob'yektini **View Bag** ob'yektida yaratamiz va ro'yxatni unga beramiz. **View Bag** ob'yekti ifodalovchiga uzatiladi. Bu ob'yektga har qanday o'zgaruvchini aniqlashimiz mumkin va unga qiymat berishimiz mumkin. Keyin ifodalash jarayonida uni olib ko'rsatishimiz mumkin. Endi ifodalashni yaratamiz. Kursorni **Index** metodiga qo'yib o'ng tugmachani bosamiz. Menyuda **Add View...** ni tanlaymiz:

Keyin bizlarga ifodalash oynasi ochiladi, qaysisida ifodalashning nomi va boshqa parametrlar tanlanadi. CHunki proektimizda bet – ustasi hali yo'q, **Use a layout or masterpage** dan bayroqchani olib tanlaymiz va **Add** tugmasini bosamiz.

Bundan keyin Visual Studio avtomatik tarzda **Index.cshtml** ifodasini ochadi. Bu ifoda minimal belgilash kodini html tilida saqlaydi. Uni quyidagicha o'zgartiramiz:

```
@{ Layout = null; }
<!DOCTYPE html>
<html>
<head>
    <meta name="viewport" content="width=device-width" />
    <title>Knijniy magazin</title>
</head>
<body>
    <div>
        <h3>Rasprodaja knig</h3>
        <table>
            <tr><td><p>Nazvanie knigi</p></td>
                <td><p>Avtor</p></td>
                <td><p>TSena</p></td><td></td>
            </tr>
        </table>
    </div>
</body>
</html>
```

```

</tr>
@foreach (var b in ViewBag.Books)
{
<tr>
<td><p>@b.Name</p></td>
<td><p>@b.Author</p></td>
<td><p>@b.Price</p></td>
<td><p><a href="/Home/Buy/@b.Id">Kupit'</a></p></td>
</tr>
}
</table> </div></body></html>

```

Bu yerda bizlar jadvalni yaratamiz, bu jadvalda kreditlash dasturlari haqida ma'lumot joylashadi. `@ foreach (var c in ViewBag. Books)` konstruktsiyasi maxsus qiziqishni ko'rsatadi. Bu konstruktsiya Razor ifodalashning harakatchi sintaksisini ishlatadi (ifodalashni yaratganimizda Razorni tanladik). Bilishimiz kerak `@` belgisidan keyin bizlar C# tilida kodni ishlatishimiz mumkin.

TSiklda bizlar ViewBag. Books ob'yektining elementlarini ko'rib chiqamiz. Keyin har bir elementning xossalarini olamiz va ularni jadval kataklariga joylashtiramiz.

Oxiridagi murojaat - `<a href="/Home/Buy/@b.Id">Kupit'</a>` -xaridni chizmaiyalashtirish formasi joylashish manzilini ko'rsatadi.

Model yaratganda shartliliklar.


Model yaratsak ba'zi shartliliklar mavjud bo'ladi. Chunki ma'lumotlar bazasi va unga tegishli model dastlabki kalitga ega bo'lishi kerak (Primary Key) shu kalitni ifodalash kerak. Ifodalashning ikkita yo'li bor. Bu yerda bizlar xossaning nomi bilan kalitni ifodalaymiz. Buning uchun model xossani nomi bilan saqlanishi kerak. Model - nomi ID yoki IDning o'zi. Purchase modelida Purchase

ID xossasi ifodalangan, ya'ni bu xossa dastlabki kalit deb bilinadi. Key atributi bilan kalitni ifodalash – bu ikkinchi usul.

Ma'lumotlarning kontekstini yaratish va Entity Framework

Ma'lumotlarga qulayroq ulanish uchun Entity Framework freymvorkni ishlatish tavsiya etiladi. Bu freymvork ma'lumotlar bazasi strukturasidan tashqari, model orqali hamma harakatlarni bajarishga imkonini beradi. Bizlar Empty shabloni bilan loyihani yaratdik, bu shablon bo'sh, shuning uchun loyihaga, MB (ma'lumotlar bazasi) bilan aloqa qilish uchun, Entity Framework fayllarini qo'shamiz. Agar biz boshqa xil shablon ishlatsak, masalan, Basic yoki Internet Application bunda Entity Framework kutubxonasi avtomatik tarzda qo'shilsa edi.

Entity Frameworkni loyihaga qo'shish uchun, sichqonchanning o'ng tugmachasini bosamiz, loyihaaning strukturasini References bo'g'imiga (uning ichida loyihaga ulangan kutubxonalar saqlanadi) va paydo bo'lgan menyuda ManageNuGet Packages...ni tanlaymiz:



1.2.1-chizma

NuGet paketlarni boshqarish oynasida, teppadagi o'ng burchagida **Entity** qidiruv maydonini kiriting va Enterni bosing. Bundan keyin hamma topilgan paketlar, so'rovga qarashli, o'rtadagi ustunda ko'rsatiladi.

Keyin paketni yuklaymiz. Endi Entity Framework ning hamma ustunliklarini, ma'lumotlarni boshqarish uchun ishlatamiz. Yuklanishdan keyin ma'lumotlar kontekstini yaratamiz, bunisi model asosida ma'lumotlarga osonlik bilan ulanish uchun kerak. Models papkasiga Book Context yangi sinf qo'shamiz:

```

using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Web;
using System.Data.Entity;
namespace BookStore.Models
{
    public class BookContext : DbContext
    {
        public DbSet<Book> Books { get; set; }
        public DbSet<Purchase> Purchases { get; set; }
    }
}

```

Kontekst yaratish uchun, **DbContext** sinfidan yangi sinfni meros qilib olishimiz kerak.

public DbSet<Book> Books { get; set; } turli xossalar aniq, turli (bu yerda Book) ma'lumotlar to'plamini olishga yordam beradi.

Natijada Entity Framework o'zi ma'lumotlar bazasini yaratadi. Bu yerda bizlar **Code First** yondashish bilan ishlaymiz, bor modellar bo'yicha freym vork ma'lumotlar borasida jadvallar yaratadi. Ulanish satrini ko'rsatamiz. Web.config faylni ochamiz, config Sections seksiyasini topamiz undan keyin connection Strings seksiyasini qo'yamiz:

```

<connectionStrings>
  <add name="BookContext"
        connectionString="DataSource=(LocalDB)\v11.0;
        AttachDbFilename='|DataDirectory|\Bookstore.mdf';
        Integrated Security=True"
        providerName="System.Data.SqlClient" />
</connectionStrings>

```

Bunda bizlar ma'lumotlar bazasiga yo'lni aniqlaymiz, qaysisi keyin yaratiladi./DataDirectory/ ifodasi o'rinbosarni tavsiflaydi, qaysisi ko'rsatadi, ma'lumotlar bazasi App_Data loyihaning papkasida yaratiladi.

Marshrutizatsiya asoslari. HomeController kontrollerlarni chaqirish uchun va unga so'rov uzatish uchun, so'rov satrida uning nomini ko'rsatish kerak – **Home**. Bundan tashqari, kontroller nomidan keyin slesh qo'yib kontrollerlarning harakati yoki metodi ko'rsatiladi, qaysisiga so'rov uzatiladi. Proekt ishini boshlagandan keyin yoki saytga murojaat qilganda, mvc Index harakatini chaqiradi, agar boshqa marshrutni ko'rsatsak, marshrutizatsiya parametrlarida.

[/Home/Buy/@b.Id](#) yo'li ko'rsatadi – bizlar Home Controller kontrollerning Buy metodini ishlatamiz. Metodni yaratishdan oldin ilovani ma'lumotlar bilan to'ldiramiz.

Endi saytimizga stil elementlarini qo'shamiz css, stillar turli va bet - ustasini, qaysisi saytning hamma betlarini bir - xil qilib ko'rsatadi. Buning uchun stil faylini aniqlab olishimiz kerak. Odatda hamma stil fayllari Content papkasida saqlanadi, shuning uchun loyihaga Content papkasini qo'shamiz. Bu ishni bajarish uchun proektning nomiga sichqonchaning o'ng tugmachasini bosamiz va chiqqan menyuda Add (qo'shish) → New Folder (yangi papka) tanlaymiz. Endi yangi papkaga stil faylini qo'shamiz. Uni Site.css deb nomlaymiz. Buni bajarish uchun Content papkaning ustiga sichqonchaning o'ng tugmasini bosamiz va chiqqan menyuda Add (qo'shish) → New Item (yangi element) tanlaymiz. Keyin shablonlar ro'yxatidan Style Sheet shablonini topamiz va yangi faylga Site.css nomini beramiz, endi Site.css faylni yozamiz:

```
body {  
    font-size: 13px;  
    font-family: Verdana, Arial, Helvetica, Sans-Serif;  
    background-color: red;  
    padding-left: 40px;
```

```

    }
    nav{ display: block;
}
    .menu {
        padding-left:10px;
    }
    .menu ul {
        list-style:none;
    }
    .menu li {
        display:inline;
    }
    .menu a:hover {
        color:red;
    }
    table {
        vertical-align:middle;
        text-align:left;
    }
    .header {
        font-weight:bold;
    }
    td {
        padding-right:10px;
    }
    input {
        width: 150px; }

```

Menu sinfi bu yerda saytda navigatsiya (harakatlanish) menyusini bildiradi.

Endi stillarni ishlatsak bo`ldi. Bunda ifodalashlarimiz oddiy web – sahifalar, shuning uchun har qanday html sahifaday head qismida stil fayliga murojaatni qo`shishimiz mumkin:

```
<head>
<meta name="viewport" content="width=device-width" />
    <link type="text/css" rel="stylesheet" href="../../Content/Site.css" />
</head>
```

Agar dasturni ilovada bitta ifoda yoki har – xil ifodalash bo`lsa va har xil stillar va boshqa resurslar ishlatilsa bunday yo`nalish haqli. Ammo bizlarda ikkita ifodalanish, qaysilarida bitta menyu va bir xil stil bo`lishi kerak. Bu yerda bet – ustasini ishlatish juda qulay. Bet – ustasi yagona shablonni boshqa ifodalar uchun beradi.

Demak, bet - ustasini yaratamiz. Birinchi bo`lib Views papkasiga yangi Shared papkasini qo`shamiz. Keyin Shared papkasiga yangi ifodani qo`shamiz - Layout.cshtml deb nomlaymiz:

-Layout.cshtml fayliga quyidagi matnni qo`shamiz:

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<head>
    <meta charset="utf-8" />
    <title>@ViewBag.Title</title>
    <link href="@Url.Content("~/Content/Site.css")" rel="stylesheet"
type="text/css" />
</head><body> <nav>
    <ul class="menu">
    <li>@Html.ActionLink("Glavnaya", "Index", "Home")</li>
    </ul> </nav>
    @RenderBody()
```

</body>

</html>

Bu yerda bizlar boshqa xil usulni ishlatdik. Url.Content metodi ishlatildi, qaysisiga faylni topish yo`lini ko`rsatdik. Bu ikkita usul teng huquqlilikka ega. Keyin bizlar sayt menyusini yaratdik Html. Action link metodlar yordamida.

Bu metod element – murojaatni ishlab chiqaradi va murojaatning nomini kontroller metodini va kontroller nomini qabul qiladi.

Oldingi ko`rinishi ilovada Buy metodi purchase parametrni ishlatdi. Berilgan metod POST – so`rovlariga ishlov beradi va bizlar unga quyidagi formani uzatishimiz mumkin:

```
<form method="post" action="">
  <input type="hidden" value="@ViewBag.BookId" name="BookId" />
  <p>Vvedite svoe imya </p>
  <input type="text" name="Person" />
  <p>Vvedite adres :</p>
  <input type="text" name="Address" />
  <input type="submit" value="Otpравit" />
</form>
```

Bu formadagi name atributi hamma maydonlarda model xossalarining nomini bildiradi, shuning uchun tizim avtomatik tarzda maydonlarning qiymatini tegishli xossalar bilan bog`laydi.

File Result sinfi mijozga fayllarni uzatadi. Ammo bu sinf abstraktli, aslida bizlar merosxo`rlar bilan ishlaymiz:

FileContentResult: fayldan o`qilgan, baytlar massivini mijozga uzatadi.

File Path Result: faylni to`g`ridan to`g`ri serverdan uzatadi.

File StreamResult: bu sinf oqimni yaratadi – System.IO.Stream ob`yekti orqali faylni o`qib chiqadi va faylni mijozga uzatadi.

Ko`rsatilgan uchta usulda File metodi ishlatiladi, qaysisi File Result ob`yektini qaytaradi. Faqat tanlangan usulga qarab, bu metodning tegishli qayta yuklangan versiyasi ishlatiladi.

Fayl tizimidan faylni uzatish uchun (File Path Result ob`yektini ishlatish), File metodida uchta parametrlarni ko`rsatamiz:

Server tomonida faylga yo`l, ichidagi narsalar tipi va kutib olgan tomon uchun fayl nomi (fayl nomi zarur emas).

```
public FileResult GetFile()
{
    // Put' k faylu
    string file_path = Server.MapPath("~/Files/PDFIcon.pdf");
    // Tip fayla - content-type
    string file_type="application/pdf";
    // Imya fayla - neobyazatel'no
    string file_name = "PDFIcon.pdf";
    return File(file_path,file_type,file_name);
}
```

Loyihadagi FilesPDFIcon.pdf fayli bor. **Server.MapPath** metodi loyihaning ichida katalogdan resursga to`liq yo`lini sozlash imkonini beradi. Absolyut yo`llarni ishlatish ham mumkin, fayl tizimining har qanday fayliga murojaat qilib, masalan: *string file-path=C "S:\Book\PDFIcon.pdf"*. Agar bizlar Home/GetFile yo`li bilan murojaat qilsak, bu faylni lokal kompyuterga saqlashni tavsiya qiladi.

Saytni betlarning ko`rinishini bir xil qilish uchun bet – ustasi ishlatiladi. Bet – ustasi aslida – bu o`sha – o`sha ifodalar. Bizlar bet – ustasida ba`zi elementlarni aniqlaymiz, qaysilari saytning hamma betlarida joylashadi. Hamda bizlar to`ldiruvchilarni yoki pleysxolderlarni aniqlashimiz mumkin, ularning mavjudligi boshqa ifodalarni ta`minlaydi.

Birinchi ifodani yaratganda bizlar – Layout.html bet – ustasini ishlatdik:

```

<!DOCTYPE html>
<html>
<head>
<meta charset="utf-8" />
    <title>@ViewBag.Title</title>
    <link href="@Url.Content("~/Content/Site.css")" rel="stylesheet"
type="text/css" />
</head>
<body>
    <nav>
    <ul class="menu">
<li>@Html.ActionLink("Glavnaya", "Index", "Home")</li>
    </ul>
    </nav>
    @RenderBody()
</body>
</html>

```

Ko`rinishda bu oddiy ifoda @ Render Body ( ) metodni chaqirishdan boshqa. Bu chaqiruv – pleyxolder, buning joyiga boshqa ifodalar, qaysilari bu bet – ustasini ishlatadilar, o`zining ichidagi narsalarini qo`yadi. SHunday deb, bizlar Veb – ilovaning ifodalari uchun osonlik bilan bir xil stilni o`rnatishimiz mumkin. Bet – ustasini ifoda uchun ishlatsak, bizlar Layout qismida bet – ustasiga yo`lni ko`rsatishimiz kerak.

Masalan, Index.cshtml ifodasi shu bet – ustasini ishlatib, shunday boshlanadi:

```

@{
    Layout = "~/Views/Shared/_Layout.cshtml";
}

```

Ifodalar html belgilarini ishlatadilar, ichidagi narsalarni ko`rsatish uchun. Lekin, ASP.NET MVC freymvorkda juda kuchli asbob mavjud – bu Html – helperlar, bular html kodini ishlab chiqaradi.

Satrli helperlar.

Satrli helperlar metodlarning oddiy ifodalarga C# tilida o`xshaydi. Satrli xelperlar C# tilida yozilgan metodlarning oddiy ifodalarga o`xshaydi, faqat @ helper tegdan boshlanadi.

Masalan, helper ko`rinishida kitoblar nomlarini ro`yxat qilib chiqarish:

```
@helper BookList(IEnumerable<BookStore.Models.Book> books)
{
    <ul>
        @foreach (BookStore.Models.Book b in books)
        {
            <li>@b.Name</li>
        }
    </ul>
}
```

Bu xelperni ifodaning qaysi bir joyida aniqlashimiz mumkin. Hamda ifodaning har qanday joyida uni ishlatish mumkin, unga *IEnumerable<Book Store. Models Book>* ob`yektni uzatib:

```
<h3>Spisok knig</h3>
@BookList(ViewBag.Books)
<!-- ili esli ispol'zuetsya strogo tipizirovannoe predstavlenie -->
@BookList(Model)
```

Satrli html – xelperlar qulay ishlatish, agar bitta metodni yaratish lozim bo`lsa, qaysisini ifodada bir nechta marta ishlatilishi niyat qilinsa.

Formalarni yaratish uchun standartli html elementlari ishlatiladi.

Masalan:

```

<form method="post" action="/Home/Buy">
    <input type="hidden" value="@ViewBag.BookId" name="BookId" />
    <table>
        <tr><td><p>Vvedite svoe imya </p></td>
        <td><input type="text" name="Person" /> </td></tr>
        <tr><td><p>Vvedite adres :</p></td>
        <td><input type="text" name="Address" /> </td></tr>
        <tr><td><input type="submit" value="Otpavit'" /> </td>
        <td></td></tr>
    </table>
</form>

```

Bu oddiy html – forma, qaysisi tugma bosilgandan keyin, POST so`rovi bilan kiritilgan ma`lumotlarni /Home/Buy manzilga uzatadi. Begin Form/EndForm qurilgan xelper o`sha – o`sha formani yaratadi:

```

@using(Html.BeginForm("Buy", "Home", FormMethod.Post))
{
    <input type="hidden" value="@ViewBag.BookId" name="BookId" />
    <table>
        <tr><td><p>Vvedite svoe imya </p></td>
        <td><input type="text" name="Person" /> </td></tr>
        <tr><td><p>Vvedite adres :</p></td>
        <td><input type="text" name="Address" /> </td></tr>
        <tr><td><input type="submit" value="Otpavit'" /> </td>
        <td></td></tr>
    </table>
}

```

Begin form metodi parametr deb, harakat metodi nomini va kontroller nomini qabul qiladi. Bu xelper <Form> ochilish tegini va </form> yopish tegini

yaratadi. Shuning uchun, ifodani chiqish oqimiga rendering qilganda bizlarda xuddi form tegini ishlatganda html – kodi bo`lib chiqadi.

1.3 SQL tili.

Ma'lumotlar bazasi dunyosi tobora yagona bo`lib bormoqda. Bu jarayon har xil kompyuter muhitlarida faoliyat ko'rsatuvchi axborot tizimlarini hosil qilishda qo'llanuvchi yagona standart til yaratishni talab qildi.

Buyruqlar to'plamini bilgan foydalanuvchilarga standart til, ular shaxsiy kompyuter tarmoq ishchi stansiyasida yoki katta EHM da ishlashidan qat'iy nazar, ma'lumot yaratish, izlash va uzatishga imkon beradi.

SQL (Structured Query Language, odatda <<sikvel>> deyiladi), ma'nosi — Tarkiblangan so'rovlar tili. Bu relyatsion Ma'lumotlar bazalarida ishlashga imkon beradigan tildir. Bu til ifodalarining xususiyati shundan iboratki, ular ma'lumotlarni qayta ishlash protseduralariga emas, natijalariga yo'naltirilgandir.

SQL o'zi ma'lumotlar qayerda joylashgani, indekslar qandayligini va hatto, amallarni qanday izchillikda qo'llasa bo'lishini aniqlaydi, bu tafsilotlarni ma'lumotlar bazasiga so'rovlarda ko'rsatish kerak emas. SQL tili IBM kompaniyasida MBBT DB2 yaratish jarayonida ishlab chiqilgan va keng ko'lamda RISC protsessorli mashinalarda UNIX tizimlar asosida hamda meynfreymlarda, super kompyuterlar asosida qurilgan katta hisoblash tizimlarida qo'llanilgan. Shu bilan birga, u mustaqil bo'lmasdan, PL/SQL va Transact-SQL kabi ichki dasturlash

tillariga inkapsulyatsiya qilinadi. 1986-yilda, ANSI (American National Standart Institute) SQL tilining rasmiy standartini ishlab chiqdi, 1992- yilda bu standart kengaytirildi. Butun til 30 ga yaqin operatorlarga ega bo'lib, ba'zi versiyalarida sal ko'proq, ba'zilarida sal kamroqdir. Har qanday MB har xil obyektlarga, ya'ni jadvallar, protseduralar, funksiyalar, tasavurlar, ketma-ketliklar va hokazolarga ega.

<<Kliyent-Server>> texnologiyasiga ko'ra, foydalanuvchi EHM (Kliyent) lar so'rovlari maxsus Ma'lumotlar serverlarida (Server) qayta ishlanadi, foydalanuvchi

EHM larga faqat so'rovni qayta ishlash natijalari qaytariladi. Tabiiyki, Server bilan muloqot qilish uchun yagona til kerak va bunday til sifatida SQL tanlangan.

Shuning uchun hamma zamonaviy relyatsion MBBT versiyalarida (DB2, Oracle, Ingres, Informix, Sybase, Progress, Rdb) va, hattoki, norelyatsion MBBT versiyalarida (masalan, Adabas) «Klient-Server» texnologiyasi va SQL tilidan foydalaniladi. SQL tilida ma'lumotlarni jadval ko'rinishda tasvirlashga yo'naltirilgan amallar konsepsiyasi ko'p bo'lmagan (30 dan kam) ifodalardan iborat kompakt til yaratishga imkon berdi. Ikki xil: Interaktiv va Joylashtirilgan SQL mavjud. Ko'p hollarda ikkala forma bir xil ishlaydi, lekin ikki xil foydalaniladi. Interaktiv SQL Ma'lumotlar bazasining o'zida faoliyat ko'rsatadi va buyurtmachi foydalanishi uchun chiqish hosil qilishda ishlatiladi. SQLning bu formasida siz buyruq kiritsangiz, u darrov bajariladi va darhol natijani (agar u mavjud bo'lsa) ko'rishingiz mumkin. Joylashtirilgan SQL boshqa tilda yaratilgan dasturga joylashtirilgan SQL buyruqlardan iborat.

SQLning interaktiv va joylashtirilgan formalarida ko'p sonli guruhlar yoki subbo'limlar mavjud. Ular ANSI tomonidan e'tiborga olingan va konseptual darajada foydali, lekin ko'pchilik SQL dasturlar ularni alohida qayta ishlamaydi, shuning uchun ular aslida SQL buyruqlarining funksional kategoriyalaridir.

- DDL (Ma'lumotlarni Ta'riflash Tili) — ANSI da sxemani ta'riflash tili, obyektlarni (jadvallar, indekslar, tasavvurlar va hokazo) yaratuvchi buyruqlardan iborat.

- DSL (Ma'lumotlarni O'zgartirish Tili) — bu jadvallarda qanday qiymatlar saqlanishini istalgan daqiqada aniqlovchi buyruqlar majmuasi.

- DCL (Ma'lumotlarni Boshqarish Tili) foydalanuvchiga ma'lum obyektlar ustida ma'lum ta'sir o'tkazishga ruxsat berish yoki bermaslikni aniqlovchi vositalardan iborat. SQL Standarti ANSI tomonidan aniqlangan va hozir IICO (Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot) tomonidan qabul qilingan. Lekin

kommersial ma'lumotlar bazalari dasturlari ANSI ni ogohlantirmasdan SQL ni kengaytiradilar, ya'ni o'zlari foydali deb hisoblagan har xil xossalarni qo'shadilar.

SQL so'rov tili — ma'lum talablar asosida berilganlar bazasiga murojaat qilib, undan so'rov talablariga javob beradigan natijalarni olish tili. Hozirgi paytda turli berilganlar bazasi va ularning sistemalari yaratilgan. Ammo relyatsion tipdagi barcha berilganlar bazasiga murojaat qilib, ulardan tegishli ma'lumotlarni olish SQL tili ishlab chiqilgan. Bu tilda so'rovlar qanday vositalar yordamida tashkil qilinishiga to'xtalib o'tamiz. Shuni aytish joizki, ba'zi BBTS larda (masalan, Accessda) uni ishlatmasdan tanlashga so'rov yoki maxsus namuna bo'yicha so'rov blanki sifatida murojaat qilib tegishli ma'lumotlar olinadi, bunday so'rovlarni tashkil qilish uchun esa База данных — Создать (Berilganlar bazasi yaratish) buyrug'idan foydalaniladi. So'rov natijasini javob sifatida jadval ko'rinishida olish mumkin.

SQL tili hozirda ixtiyoriy berilganlar bazasiga so'rov berib, undan javob olishni ta'minlovchi andozaviy vosita hisoblanadi. Bu til bilan tanishishni real hayotda o'z o'rnini to'la aks ettira oladigan misollar asosida ko'rib chiqamiz.

Kerakli tushunchalar imkon boricha ko'rilyotgan holatlarni izohlash uchun kiritiladi.

Masalan, 1-jadvalda fabrika xizmatchilari haqidagi ma'lumot keltirilgan.

Name	Dob	Pol	Los	Department	Salary	Telno
Rustam V.	17/01/50	M	22	Admin	2700	1338234
Erkin J.	20/02/55	M	17	Worker	2300	1445754
Barot V.	02/07/75	M	21	Sales	2250	6506133

1.3.1-jadval. Factory.

Ushbu jadval 7 ustun va 5 satrdan iborat. Har bir ustun o'z nomiga ega.

Name — xizmatchilar ismi

Dob — tug'ilgan kun sanasi

Pol —jins, Los — fabrikadagi ish staji (davri)

Department — fabrikadagi xizmatchi ishlayotgan bo'lim

Salary — xodimlarning oylik maoshi

Telno — telefon raqami

Yuqoridagi ustunlar nomi matritsa atributlari nomini olgan. Har bir satr aniq xizmatchi (xodim) haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

Har bir ustun har xil uzunlik va turga ega ekanligini e'tiborga olamiz. Name ustunida fabrika xodimlarining familiyalari qo'llanilmoqda, ya'ni maksimal uzunligi 15 belgiga ega bo'lgan so'zlar. Dob ustuni sana turiga, boshqa uzunlikka va h.k. ga ega. Ustunning turi va uzunligi uning atributlari hisoblanadi. 1 -ustundan ko'rinib turibdiki, bu ta'riflar har xil va shuning uchun ham jadvalni belgilashda ular tegishli tarzda aniqlanishi kerak. Nihoyat, 1-jadvalni boshqa jadvaldan ajrata olish uchun u o'zining nomiga ega bo'lishi kerak. Shu yerda va bundan buyon ham 1-jadvalga <<Factory>> nomini berdik.

Jadvallarni tuzishda ularda 2 ta butunlay bir xil satr bo'lmasligi kerak. Shuni e'tiborga olish kerakki, jadvaldagi hamma ustunlar ham bir ma'noda har bir satrni aniqlayvermaydi.

